

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

OILAVIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY QADRYATLARNING O'RNI

Z.Boytemirova
f.f.f.n, dotsent

Annotatsiya

Maqolada oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda milliy qadryatlarning o'rni va yoshlarni mulliy va umuminsoniy qadryatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, barkamol avlot, halollik, nikoh, ma'naviyat, jamiyat davlat.

Oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istiklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnag'ini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa yosh oilalarda ota-onalik ma'suliyatini o'z zimmasiga olib o'zaro munosabatlar tizimini to'g'ri shakllantirish jarayonlarida kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasida oilaga, oilaviy munosabatlarga juda katta e'tibor qaratib kelinmoqda .Jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaga quydagicha ta'rif berilgan "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadryatlariga,nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi.Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy,iqtisodiy,huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi." [1.43b]

Yosh oila deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. Birinchi yondashuv, ya'ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to'g'riq bo'lib, qachon turmush qurbanligidan qat'iy nazar, albatta, shu muddat orasida xali yigit ham qiz ham tom ma'noda katta mehnat stajiga ega bo'lmaydi, va ko'p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo'lib, uy Bekasi bo'lib o'tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi yondashuv bo'yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko'ra tabaqlashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar orttirish bo'yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda

ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin.Oila qurilgandan so'ng uni mustahkamlovchi ilk narsa bu yigit va qizning bir birlariga bo'lган mehr-muhabbatlari bo'lsa yana bir qarash oilada farzandning dunyoga kelishidir.Oilani mustahkamlash va uni bardavom bo'lishi albatta ko'p tomonlama qarashlarga xam bog'liqidir.Jumladan oilada ota bobolarimizdan qolgan turli xil urf odatlar va an'analarga ham rioya qilishimiz lozim.Bevosita o'zbek xalqining ko'p qismini Islom diniga mansub aholi tashkil etishini hisobga olgan xolda xam oilani mustahkamlovchi bu avvalo ayolning erkakka bo'lган itoatidir deb bilmog'imiz zarur.O'zbek xalqining necha asrlardan buyon saqlanib,sayqallanib kelayotgan qadryatlarini albatta har bir oila boshliqlari otalar o'g'illariga,onalar esa qizlariga o'rgatmog'i kerak.Oilani mustahklamlashda er va xotinning bir biriga bo'lган hurmati,ishonchi va albatta mehri bo'lishi kerak. Oila uchun - hayotdagi asosiy qadriyatlar, barcha oila a'zolarining hamjihatligini, ishonchini va sevgisini mustahkamlaydigan muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilishga intiladi. Urf-odatlar - bu oilaning eng muhim qadriyatlaridan biridir, bu sizning va yaqinlaringiz uchun xos bo'lган o'ziga xoslikdir.Oilada urf-odatlarga rioya qilib yashamoq o'zbek xalqining qon qoniga singib ketgan. Xalqimizda shunday milliy odat, an'anava fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yo'qligidan tashqari insoniyat ma'naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg'otishga imonim komil. O'zbek xalqi azaldan jamoa tuyg'usiga moyil, — degan edi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov. — Bizlar to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining holidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-joyiga qo'yib, beva-bechoralarning, yetim-yesirlarning boshini silab, xullas, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlarning farzandlari bo'lamiz».[2.54b] Jamoaga suyanish va jamoatchilik fikrini hurmat qilish xalqimizning eng olijanob fazilatidir. Buni mahallalardagi ijtimoiy-axloqiy rasm-rusumlar isbot qilib kelmoqda. Birgina to'y marosimimizning o'zini milliy fazilatlarimizning guldastasi desa bo'ladi. O'zbek xonardonidagi birorta to'y kengashsiz, maslahatsiz o'tmaydi. Hatto kelin va kuyov tanlashdan boshlanadigan odatlarimiz ham kelajakdagи yosh oilaning tinch-totuvligini nazarda tutadi: kimning farzandi, ota-onasi qanday odamlar, mahalla-kuyda obrusi qanaqa, mustaqil oila tebratib ketishga qurbi yetadimi, yomon qiliq, yoki odatlari yo'qmi, qarindosh-urug'lari qanday odamlar, hatto avlod-ajdodlarida biror anduhik alomatlari bo'lмаганми? Bu savollarga ijobiy javob olingachgina ikki tomon o'z rozi-rizoligini beradi. Bunday odatlarimizning nimasi yomon? ha, deb bunday savollar bilan kelin yo kuyov izlansa, yoshlarning mustaqilligi, muhabbat poymol etilmaydimi, degan fikrlar bo'lishi mumkin. To'g'ri, ba'zan ota-onasi obro'si muhabbatdan ustunlik qilgan dalillar uchraydi. Lekin, umuman olganda, sinab-surishtirgan oilalarning qudashiligi, ota-onalar bosh-qosh bo'lган to'y-u tomoshalarning natijasi yaxshi bo'lishi hammaga ayon. Milliy urf-odatlarimiz, ota-bola, qaynona-kelin, qarindosh-urug'chilik va hokazo ma'naviy ziynatlarimizni o'ylasak, ko'z oldimizga

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

birinchi galda Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani keladi. Nazarimda, o'zbek xalqining milliy fazilatlarini ulug'lovchi, uni dunyodagi eng nozikta'b xalqlar qatoriga olib chiqib, ko'z-ko'z qilgan bu romanga teng keladigan asar hamon yaratilgani yo'q. O'quvchilar hatto etnografik yo'nalishda bo'lsa-da, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini o'yg'otadigan o'zbekona asarlarga chanqoq bo'lib yurgandek tuyuladi. Manashunday b oy tariximiz ni yoshlarga to'lalaigicha yetkazsak albatta yoshlарimiz milliy qadryatlarimiz ruhida sug'oriladi va quriladigan oilalar mustahkam va albatta vatan ravnaqi uchun katta hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish oilalarimizning mustaxkamligi,jamiyat rivojiga munosib xissa qo'shish,o'zbek xalqining boy tarixini namoyon qilish muhim ahamyatga ega. Ya'ni o'z taraqqiyot va islohot yo'limizdan tezkorlik bilan ilgari siljishga kuchli ruhiy quvvat beradigan milliy madaniyatimiz, sharq falsafasining hayotbaxsh va teran buloqlaridan bahramand bo'lish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O'zbekiston” Toshkent -2023 43b
- 2.I.A.Karimov O'zbekiston:milliy istiqlol ,iqtisod,siyosat mafkura 1996 54b